

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur SSV huzuridagi Tibbiyot va farmasevtika uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2025 yil "26" dekabrda IXT-10 sonli bayonnomasi asosida tasdiqlangan

Amal qilish muddati 2031yilgacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi			
Kafedra/ bo'lim	Ftiziatriya			
O'quv dastur nomi	Ftiziopediatriya			
O'qish turi	Ixtisoslashtirish			
O'quv dastur muallifi/ mualliflari	Alidjanov S.K., Sabirov Sh.Yu., Sharapova G.Sh.			
Siklning umumiy soati	504 kredit			
Siklda dars beradigan o'qituvchi va trenerlar				
				
PhD., dotsent Alidjanov S.K.		t.f.n., dotsent Sabirov Sh.Yu.		 assistent, Sharapova G.Sh.
Maqsad	Xalqaro standartlarga asoslanib, professional kompetensiyasini yangilash asosida, malakaviy tavsiflarga muvofiq ravishda, maxalliy va jahon sog'liqni saqlash tizimidagi yangiliklarni hisobga olgan holda, profilaktik va epidemik vazifalarini bajara oladigan mutaxassis- ftiziopediatr tayyorlash			
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingent	Pediatriya bo'yicha barcha tor mutaxassislar			
Sikl vazifalari	Zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish; Shifokorlarni dalillarga tayangan tibbiyot asoslariga o'rgatish va uni ftiziatriya tizimida amaliyotga tadbiq qilish; Sil kasalliklarini MKB – 11 ga mos ravishda tashxislashga o'rgatish; Bolalar orasida sil kasalliklarini epidemiologiyasi, patogenezi, tashxislash va davolashni zamonaviy bilimlar darajasida o'rgatish; Zamonaviy laborator va instrumental tekshiruv natijalarini to'g'ri baholashga o'rgatish; Ambulator va statsionar sharoitda sil kasalliklarini standartlar asosida tashxislash va			

	davolashni o'rgatish; Aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sil kasalligini oldini olish, barvaqt aniqlash, reja asosida xavf guruxlarini tekshirishni tashkil qilish, bemor va muloqotdagilarni dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishga o'rgatish. Tibbiyot xodimlarida hayotiy va ilmiy tassavvurni shakillantirishda milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni insonparvarlik mohiyatini ko'rsatish asosida, tibbiyot xodimlarining qalbi va ongiga singdirish.
Sikl tarkibi	Modul 1. Sog'liqni saqlash sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish Modul 2. Ftiziopediatriyaning nazariy asoslari va ijtimoiy ahamiyati Modul 3. Bolalarda sil kasalligini aniqlash va skrining Modul 4. Bolalarda sil kasalligini davolash Modul 5. Sil kasalligini profilaktika qilish Modul 6. Ftiziopediatriyada amaliy ko'nikmalar va boshqaruv
O'quv bazalari 1. Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi (Toshkent, Shayxontoxur tumani, Majlisiy ko'chasi 1 uy)	2 Toshkent shahar ftiziatriya va pulmonologiya markazi (Toshkent, Chilonzor tumani, 7 kv, ul. Lutfiy 33/1)
Simulyasion asbob/uskunalar	